

TOVARLARNI YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

24 / -sonli

Samarqand sh.

«24 » 9 nov 2022 y.

Keyingi urinlarda "Yetkazib beruvchi" deb nomlanadigan «ORIYO-MEHR» MCHJ nomidan Ustav asosida 04 dekabr 2021 yil №600 sonli ishonchnomaga bilan harakat qiluvchi direktor urinbosari Ayubov O.M. bir tomonidan va keyingi urinlarda "Xaridor" deb nomlanadigan «11110504 мусим табигат биринчи сен» nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi A. Y. Ce Siderova, ikkinchi tomonidan keyingi urinlarda birgalikda va/yoki aholida "Taraflar" deb nomlanadiganlar mazkur mahsulot yetkazib berish shartnomasini (keyingi urinlarda Shartnoma deb ataladi) quyidagilar tugrisida tuzdilar :

1. SHARTNOMA PREDMETI.

- 1.1. Shartnoma shartlariga kura, Yetkazib beruvchi Xaridorga ushbu shartnomada urnatilgan muddatlarda, assortimentda va miqdorda dori vositalari, substansiylar, biologik aktiv qushimchalar, kosmetika va tibbiy buyumlarni (keyingi urinlarda Tovar) yetkazib berish va topshirish, Xaridor esa ushbu Tovarni qabul qilish va tulovni amalga oshirish majburiyatini oladi.
- 1.2. Tovarning nomi, miqdori, baxosi, qiymati, tulov muddatlari va shartlari xamda boshqa ehtimoliy belgilari shartnomaning ajralmas qismi xisoblangan va unga ilova qilinadigan xisob fakturalarda kursatiladi.
- 1.3. Shartnomaning umumiyligi baxosi mazkur shartnomaning amal qilish davrida yetkazib beruvchi tomonidan xaridorga topshirilgan tovarlarning barcha partiyalari umumiy qiymatidan kelib chiqadi. Tovar hisob fakturasida kursatilgan miqdor, mazkur shartnoma buyicha tovar partiyasi deb tushuniladi.
- 1.4. Yetkazib beruvchi xaridorga yetkazib beriladigan tovarga moliyaviy yoki Tovar chegirmalarni taqdim qilish huquqiga ega. Chegirmalarning xususiyati va miqdorlari hisob-fakturada aks ettiriladi.

№	Наименование товара (Производитель)	Ед, изм,	Кол-во	Отпускная	Стоимость поставки	НДС	Стоимость поставки с учетом акциза и НДС
1	- Ampisillin 1000mg №1	уп	300	2 617	785 100	Без НДС	785 100
2	- Benzilpensilin 1000ЕД	уп	300	2 096	628 800	Без НДС	628 800
3	- Gentamisin Sulfat 80mg/2ml №10	уп	80	5 802	464 160	Без НДС	464 160
4	Xlorpiramin - Metoklopromid 0,5% 2ml №10	уп	30	6 524	195 720	Без НДС	195 720
5	Prokain - Novokain 0,5% 5ml №10	уп	434	4 192	1 819 328	Без НДС	1 819 328
6	- Pirasitam Amp. 20% 5ml №10	уп	70	6 216	435 120	Без НДС	435 120
7	Sorbitol+ natriy laktat - Ringer Laktat 250ml	фл	200	3 170	634 000	Без НДС	634 000
8	Sifepim - Sifazolin 1,0	уп	500	4 145	2 072 500	Без НДС	2 072 500
9	- Seftriakson natriy 1,0g	уп	500	4 349	2 174 500	Без НДС	2 174 500
10	Etanol - Spirit 70% 50ml	уп	1 000	1 265	1 265 000	Без НДС	1 265 000
11	- Perekis vodarod 3% 100ml	фл	300	1 140	342 000	Без НДС	342 000
12	- Natriy xlorid 0,9% 400ml	уп	300	7 271	2 181 300	Без НДС	2 181 300
13	- Oksitasin 1ml №10	уп	108	5 526	596 808	Без НДС	596 808
14	- Disilin 2% 10ml. №10	уп	20	41 789	835 780	Без НДС	835 780
15	- Natriy Xlor 0,9% 200ml	уп	500	2 686	1 343 000	Без НДС	1 343 000
Итого по валютным товарам			4 642		15 773 116		15 773 116

Предоплата 30% от суммы по группе

Итого по группе №1

15 773 116

1.3. Общая сумма договора составляет 15 773 116 (Пятнадцать миллионов семьсот семьдесят три тысячи сто шестнадцать сум ноль тийин) сум.

2. TOVARNING SIFATI VA MIQDORI.

- 2.1. Tovarning sifati va amal qilish muddati Farmakompaniya talablariga davlat organlari tomonidan shunday turdag'i tovarlarga nisbatan urnatilgan xamda ushbu shartnomani ijro qilish paytida amalda bulgan standart va texnik talablarga javob berishi kerak. Xaridor, tovari ishlab chiqaruvchi tomonidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy huquqiy hujjatlarida belgilangan shartnomaga muvofiq tovari saqlash shartlariga rioya qilish shart.
- 2.2. Tulovni tuliq amalga oshirish sharti bilan Xaridor tovarning miqdori, sifati buyicha tovar yetkazib beruvchi tomonidan chiqarib yuborilgan paytdan boshlab 7 kun mobaynida e'tiroz bildirish huquqiga ega. E'tiroz mustaqil ekspert tashkiloti tomonidan tovarning miqdori, sifati xamda Xaridorning omborida saqlash shartlari tugrisidagi dalolatnomasi bilan tasdiqlangan bulishi shart. Yuqorida kursatilgan muddatlar utkazib yuborilsa miqdor, sifat buyicha e'tirozlar kurib chiqilmaydi.
- 2.3. Yetkazib beruvchi tomonidan Xaridorning e'tirozi tan olingan taqdirda, Yetkazib beruvchining javobgarligi tovari almashtirib berish yoki sifatsiz tovar qiymatini qaytarish bilan cheklanadi. Yetkazib beruvchi e'tirozini qabul qilib olgan kundan boshlab 30 kun ichida kurib chiqadi.
- 2.4. Xaridor tovari qabul qilish vaqtida uni sifati va miqdori buyicha tekshirishi, tegishli bulgan xujjalarni rasmiylashirishi va imzolashi shart. Shu munosabat bilan keyinchalik Xaridor tomonidan maxsulotdagi kamomad va uning sifatsizligi buyicha Yetkazib beruvchiga e'tiroz bildirishi mumkin emas.

3. YETKAZIB BERISH MUDDATLARI VA SHARTLARI.

- 3.1. Yetkazib beruvchi tomonidan tovari Xaridorga yetkazib berish 10 (o'n) bank kuni mobaynida amalga oshiriladi, shuningdek, Xaridor tomonidan shartnoma shartlariga asosan, hisob fakturada kursatilgan tulov summasi oldindan amalga oshirilgan bulishi kerak.
- 3.2. Tovarni Xaridorning omboriga yetkazib berish Xaridorning kuchi va vositalari bilan amalga oshiriladi. Tovarni topshirish qabul qilish joyi Yetkazib beruvchining ombori xisoblanadi.
- 3.3. Yetkazib beruvchi taraflarning kelishivi bilan tovari Xaridorga uzi yetkazib beradi, bunda tovari yetkazib berish buyicha transport va boshqa xarajatlar Yetkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.
- Tovarni yetkazib berish qiymati tovarning narxiga kirmaydi. Tovarni tushirish Xaridorning xisobidan amalga oshiriladi.
- 3.3. Tovar Xaridor tomonidan lozim darajada rasmiylashtirilgan ishonchoma taqdim etilganda quyib yuboriladi.
- 3.4. Tovarni va shunday turdag'i tovarlarga tegishli xujjalarni Xaridorga taqdim qilish bilan birga, tuzilgan hisob faktura sanasi tovarlarni qabul qilish sanasi hisoblanadi.
- 3.5. Xaridor Taraflar tomonidan yuklanadigan tovarning miqdori va nomenklaturasi kelishilgan sanadan boshlab 3 kun ichida kelmagan taqdirda, Yetkazib beruvchi tovarning omborda mavjudligi buyicha javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
- 3.6. Xaridor uz aybi bilan yetkazib berish muddati kechiktirilsa, tovarlarni qabul qilishdan bosh tortishga xaqli emas.
- 3.7. Ushbu shartnoma buyicha barcha muddatlar, muddat boshlanishi belgilangan kalendar sanasidan yoki sodir bulgan xodisadan keyingi kundan boshlab xisoblanadi.

4. BAXO VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

- 4.1. Tovarga, Yetkazib beruvchi tomonidan bozor konyekturasidan kelib chiqib mustaqil o'zgartirish kiritish mumkin bulgan narx belgilanadi.
- 4.2. Yetkazib beriladigan tovarning narxi yuk xatlarida va hisob-fakturalarda belgilanadi.
- 4.3. Tovar uchun hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – sumda amalga oshiriladi.
- 4.4. Xar bir yetkazib berilgan Tovar uchun hisob kitoblar xar bir hisob fakturada kursatilgan tovar umumiy baxosini oldindan tulash orqali quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

 - 4.4.1. Hisob-fakturada kursatilgan, qabul qilib olingen Tovar haqining 100 % oldindan tulov qilinganda, Yetkazib beruvchi tovari 3 kalendor kuni ichida yetkazib berish majburiyatini oladi.
 - 4.4.3. Hisob-fakturada kursatilgan qabul qilib olingen Tovar haqining 30 % oldindan tulov qilinganda, yetkazib beruvchi tovahyb 30 kalendor kun ichida yetkazib berishni, xaridor esa qilgan 70% miqdoridagi tulovni 30 kalendor kun ichida tulab berish majburiyatini oladi.
 - 4.4.4. Oldindan tulov miqdori, taraflarning keliushivi bilan uzgartirilishi mumkin.

- 4.5. Quyib yuboriladigan tovar uchun qisman tulov amalga oshirilganda, Yetkazib beruvchi Xaridordan Tovar uchun tulovni amalga oshirish buyicha majburiyatlarini bajarishini garov yoki kafillik orqali ta'minlashni talab qilish huquqiga ega.
- 4.6. Xaridor ushbu shartnomani imzolash orqali Yetkazib beruvchiga uzning har qanday hisobvaraqlaridan qarzdorlik, shu jumladan neustoykalar (penya, jarima) summalarini, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi o'matilgan tartibda tulov talabnomasi taqdim qilish orqali nizosiz yechib olishga aktsepsiz, suzsiz va chaqirib olinmaydigan huquq beradi.
- 4.7. Xaridor Yetkazib beruvchining talabi bilan yetkazib berilgan tovarlar va amalga oshirilgan tulovlarni yozma taqqoslashi shart (o'zaro hisob kitoblar taqqoslash dalolatnomasi).

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

- 5.1. Taraflar majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mazkur shartnoma va amaldagi qonunchilikka asosan javobgar buladi.
- 5.2. Xaridor tomonidan tulungan tovarlarni yetkazib berishni kechiktirganlik yoki tuliq yetkazib bermaganlik, shuningdek fors-major holatlari mavjud bulmaganda hamda Xaridor tovari olish uchun uz vaqtida kelganda yetkazib beruvchi xaridorga har bir kechiktirilgan kun uchun tuliq yetkazib berilmagan tovar haqining 0,4% miqdorda, biroq yetkazib berilmagan tovar partiyasi qiyamatining 15% miqdoridan kup bulmagan miqdorda penya tulaydi.
- 5.3. Yetkazib beruvchiga tovar uchun tulov uz vaqtida amalga oshirilmaganda, Xaridor har bir kechiktirilgan kalendar kun uchun kechiktirilgan tulov summasining 0,4% miqdorida, biroq kechiktirilgan tulov summasining 50% dank up bulmagan miqdorda penya tulaydi.
- 5.4. Shartnomaning 4.6-bandiga asosan Yetkazib beruvchi tomonidan quylgan tulov talabnomasi ijrosi asossiz rad qilinganda Xaridor Yetkazib beruvchiga tulov topshiriqnomasida kursatilgan summaning 15% miqdoridagi jarima kurinishida neustoyka tulaydi.
- 5.5. Neustoykani tulash hamda zararni qoplash, Taraflarning majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.
- 5.6. Xaridor davlat organlari tomonidan tovarlarni saqlash, realizatsiya qilish va foyalanish buyicha ruxsatnomalar, patentlar, guvoxnomalar, litsenziyalar va boshqa hujjatlarning tuliq mavjudligi hamda haqiqiyligi uchun tuliq javobgarlikni uz zimmasiga oladi.

6. BOSHQA SHARTLAR.

- 6.1. Taraflarning mazkur shartnoma buyicha tartibga solinmagan o`zaro munosabati O`zbekiston Respublikasining amaldaqi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.
- 6.2. Agar ushbu shartnoma qoidalariidan biri haqiqiy bulmasdan qolsa va boshqa qoidalarga ta'sir qilmasa, ushbu holat mazkur shartnomaning amal qilishini tuxtatishga sabab bulmaydi. Haqiqiy bulmagan qoida xuquqiy munosabatda qullaniladigan va almashtiriladigan qoidaga mazmunan yaqin bulgan qoida bilan almashtirilishi kerak.
- 6.3. Xaridor ushbu shartnomani imzolashda Yetkazib beruvchiga quyidagi xujjalarning tasdiqlangan nusxalarini taqdim qiladi: Davlat ruyxatidan utganligi tugrisidagi guvoxnama, raxbarga bayonnomma yoki buyruq, farmatsevtika faoliyatini yoki tibbiy xizmatlar kursatishga litsenziya, nazorat kassa mashinkasining ruyxatdan utganligi tugrisidagi ma'lumotnoma.(NKM)
- 6.4. Taraflardan hech biri ushbu shartnoma buyicha o`z huquq va majburiyatlarini ikkinchi tarafning yozma roziligidiz uchinchi shaxslarga utkazish huquqiga ega emas.
- 6.5. Shartnoma ikkinchi taraf shartnomani bekor qilish sanasidan 30 kun oldin bekor qilish tugrisida ogohlantirish yuborish va shartnomani bekor qilish paytida u buyicha barcha majburiyatlar bajarilganligi sharti bilan faqatgina taraflarning uzaro kelishuvli asosida bekor qilinadi.
- 6.6. Kelishmovchilik va nizolar kelib chiqqanda, ularni muzokara yuli bilan hal etishning imkoniyati bulmaganda, ular Samarqand shahar iqtisodiy sudida yoki Samarqand shahar fuqarolik sudida hal etiladi.
- 6.7. Shartnoma gaznachilik tomonidan yastiqlanib taraflar imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi hamda shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi, shuningdek, o`zaro hisob-kitoblar qismida esa ular tuliq bajarilgunicha amal qiladi.
- 6.8. Ushbu shartnomaga uzgartirishlar, qushimchalar va ilovalar yozma tarzda tuzilib, taraflarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganda haqiqiy hisoblanadi.
- 6.9. Shartnoma har bir taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bulgan 2 (ikki) nusxada tuziladi.
- 6.10. Manzil, bank rekvizitlari uzgarganda, qayta tashkil qilish, tugatish amalga oshirilganda shuningdek, boshqa ahamiyatli uzgarishlar bulganda Xaridor Yetkazib beruvchini bunday uzgarishlar sodir bulgan kundan 3 kun ichida xabardor qilishi kerak. Xabar berilmaganda (lozim darajada xabar berilmaganda) Yetkazib beruvchi Xaridordan 20 BHM miqdorda jarima undirish va yetkazilgan zararni undirish huquqiga ega.

7. TARAFLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI.

YETKAZIB BERUVCHI

ООО «ORIYO MEHR»
 Manzil: Samarqand sh, A. Temur kuchasi, 184-uy
 H/r: 20208000404340761005
 Bank: «Trust», Uzbekiston, XA Samarqand
 MFO: 01097 ИНН: 205137001
 OKED: 46460
 Tel: + 998 78 210 17 25

Direktor urinbosari :

Ayubov O. M.

M.O.



Yuridik bo'lim boshligi

XARIDOR:

Уларбеков ТТБ
 Manzil: *Газиево шахри Марказий мадрасаси*
 H/r: *2000225022237073101054081*
 Bank: *Тинкент банк*
Тинкент симони
 MFO: *00014* ИНН: *200498238*
 OKED: *91511*
 Tel: *32-21-434*

Direktor



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

24 yanvar 2022 yil

Sherobod t.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 iyundagi PQ-5168-son qaroriga ko'ra, yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar tomonidan shartnomalar loyihibalarini tayyorlash va tuzish ishlariда ishtirok etadi, ularning qonunchilikka muvofiqligini tekshirishi belgilangan bo'lib, shunga ko'ra Sherobod tumani tibbiyot birlashmasi va «ORIYO-MEHR» MCHJ o'rtasida **15 773 116** (o'n besh milion yetti yuz yetmish uch ming bir yuz o'n olti) so'mlik №__-sonli __.01.2022 yilda tuzilgan shartnoma loyihasini huquqiy tekshiruvdan o'tkazib, quyidagilarni aniqladim:

1. Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 10, 24, 34-moddalari talablariga javob beradi.

2. Mazkur shartnomadagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 386-424-moddalari bilan tartibga solingan.

3. O'zaro hisob-kitoblar, javobgarlik va nizolarni hal etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd etilganlarga ko'ra, ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun xujjatlari talabiga mos keladi deb hisoblayman.

Markaz bosh yuriskonsulti



A.A.Mengliev

24 yanvar 2022 yil